



NATIONAL IDENTITY POLICY OF THE ARAB STATES

Aziz Rizayev

Independent Researcher (PhD)

Tashkent State University of Oriental Studies

rizaev@gmail.com

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: national identity, political identity, civic identity, identity politics, Arab countries, constructivism, modernization, globalization, foreign policy, international relations, Arab-Muslim discourse, language policy, memory politics, cultural integration, political stability, collective consciousness, social consolidation, civilizational approach, methodology, institutional analysis.

Received: 20.01.26

Accepted: 21.01.26

Published: 22.01.26

Abstract: This article examines the historical and political foundations of national identity formation in the Arab states of the Middle East, conceptualizing identity not as a natural byproduct of ethno-cultural cohesion but as a dynamic political construct. The study argues that the region has largely followed a “state-identity” logic, in which state institutions and elite strategies function as primary mechanisms of identity construction. Particular attention is paid to the legacy of empire especially the confessional-legal ordering associated with the Ottoman millet system and to early twentieth-century colonial boundary-making, whose artificial borders institutionalized long-term competition among tribal, sectarian, and civic loyalties. The article demonstrates that postcolonial state-building and ideological projects unfolded under conditions of institutional fragility and social fragmentation, contributing to the instability of identity regimes. Finally, the research highlights contemporary drivers of transformation-mediatization, digital communication, and diasporas which intensify hybrid and transnational forms of belonging.

ARAB DAVLATLARINING MILLIY IDENTIKLIK SIYOSATI

Aziz Rizayev

TDSHU mustaqil tadqiqotchisi (PhD)

rizaev@gmail.com

Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit soʻzlar: milliy identiklik, siyosiy identiklik, identiklik siyosati, arab mamlakatlari, konstruktivizm, modernizatsiya, globallashuv, tashqi siyosat, xalqaro munosabatlar, arab-musulmon diskursi, til siyosati, madaniy integratsiya, siyosiy barqarorlik, kollektiv ong, jamiyat, sivilizasion yondashuv, metodologiya, institutsional tahlil.

Annotatsiya: Maqolada Yaqin Sharq arab davlatlarida milliy identiklikning shakllanishi tarixiy-siyosiy omillar kesishmasida vujudga kelgan dinamik siyosiy konstrukt sifatida talqin qilinadi. Mintaqada “millat–davlat” modelidan koʻra “davlat-identiklik” mantiqi ustun boʻlib, milliy oʻzlikni barpo etishda davlat institutlari hamda hukmron elitalarning strategiyalari hal qiluvchi mexanizm vazifasini bajargan. Maqolada Usmoniylarning milat tizimi doirasida konfessional-huquqiy tartibning institutsional izlari, shuningdek, XX asr boshidagi kolonial rejalashtirish va sunʼiy chegaralarning uzoq muddatli oqibatlari tahlil qilinadi. Postkolonial davlat qurilishi jarayonida sekulyar milliylik, panarabizm va islomiy legitimatsiya kabi mafkuraviy loyihalar institutsional zaiflik hamda ijtimoiy parchalanganlik sharoitida rivojlangani sababli identiklik rejimlarining beqarorligi asoslab beriladi. Mediatsiya, raqamli kommunikatsiyalar va diaspora omillari hisobiga milliy identiklikning gibrid va transmilliy shakllari kuchayayotgani koʻrsatiladi.

ПОЛИТИКА НАЦИОНАЛЬНОЙ ИДЕНТИЧНОСТИ АРАБСКИХ ГОСУДАРСТВ

Азиз Ризаев

Независимый исследователь (PhD)

Ташкентский государственный университет востоковедения

rizaev@gmail.com

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: национальная идентичность, политическая идентичность, политика идентичности, арабские страны, конструктивизм, модернизация, глобализация, внешняя политика, международные отношения, арабо-мусульманский дискурс, языковая политика, культурная интеграция, политическая стабильность, коллективное сознание, консолидация общества, цивилизационный подход, институциональный анализ.

Аннотация: Статья анализирует историко-политические основы формирования национальной идентичности в арабских государствах Ближнего Востока, трактуя её не как естественное следствие этнокультурной общности, а как динамичный политический конструкт. Показано, что в регионе преобладала логика «государство–идентичность», при которой государственные институты и элитарные стратегии выступали ключевыми механизмами конструирования

национального самосознания. Особое внимание уделено влиянию имперского наследия, колониального переустройства и искусственности границ, задавших долговременные рамки для конкуренции племенных, конфессиональных и гражданских форм лояльности. Обосновано, что постколониальное государственное строительство и идеологические проекты развивались в условиях институциональной слабости и социальной фрагментации, что обусловило нестабильность идентичностных режимов. Выявляются современные факторы трансформации идентичности - медиатизация, цифровые коммуникации и диаспоры, формирующие гибридные и транснациональные формы принадлежности.

Kirish. Arab mamlakatlarida milliy identiklik shakllanishi jarayoni siyosiy, madaniy va sivilizatsion omillarning asrlar davomidagi o‘zaro ta’siri natijasida vujudga kelgan murakkab konstrukt sifatida ko‘rib chiqiladi. An’anaviylik va modernizatsiya, diniy qadriyatlar va dunyoviy g‘oyalar, mustamlakachilik tajribasi va milliy suverenlik uchun kurash o‘zaro ta’sirida arab jamiyatlarining o‘z-o‘zini anglash modellarining xilma-xilligi shakllandi.

Adabiyotlar sharxi. Yaqin Sharq arab davlatlarida milliy identiklik muamosi tabiiy etnik, lisoniy yoki madaniy birdamlik oqibatida emas, balki asrlar davomida amalga oshgan tarixiy-siyosiy transformatsiyalar ta’sirida shakllangan murakkab konstrukt sifatida namoyon bo‘ladi. Mintaqada milliy o‘zlik rivojlanishi zaif institutsional asosga ega davlatchilikning shakllanishi, imperiya tuzilmalarining parchalanishi, kolonial chegaralarning sun’iy xarakteri, qabilaviy va konfessional jamoalarning barqarorligi hamda hukmron elitalarning modernizatsion strategiyalari ta’sirida yuz berdi. Shu sababli arab davlatlarida Yevropa tarixida kuzatiladigan “millat-davlat” modelidan farqli o‘laroq, ko‘proq “davlat-identiklik” mantig‘i hukmronlik qildi [8; p. 124]. Ya’ni davlat milliy identiklikni shakllantiruvchi asosiy sub’ekt vazifasini bajardi. Professor I.D.Zvyagelskaya [2; c. 187] ta’kidlaganidek, mintaqada identiklik hech qachon tugal shakllangan o‘zgarmas kategoriya bo‘lmagan, aksincha, siyosiy makonning o‘zgaruvchan konfiguratsiyalari, elita manfaatlari va tashqi ta’sirlar o‘zaro kesishuvda doimiy ravishda qayta konstruksiya qilinadi.

Imperiya merosi Yaqin Sharqda milliy identifikatsiyaning dastlabki institutsional tartibni belgilab bergan. Usmoniylar va qisman Safaviylar imperiyalari davrida mintaqadagi ijtimoiy tuzilma milliy yoki etnik tamoyillarga emas, balki konfessional-huquqiy mezonlarga asoslangan. Usmoniylarning millat tizimi doirasida jamiyat diniy jamoalar, ya’ni musulmonlar, xristianlar,

yahudiylar va boshqalar asosida tasniflangan. Fuqarolik tushunchasi diniy mansublik bilan uyg'unlashtirilgan.

Imperiyaning ma'muriy-hududiy chegaralari ko'p hollarda etnik tarkib va tarixiy-madaniy voqeliklarga mos kelmagan. Xususan, Iroq tarixan Basra, Bag'dod va Mosul kabi ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan turlicha rivojlangan viloyatlardan tarkib topgan bo'lib, ular o'rtasida muayyan mintaqaviy farqlar mavjud bo'lgan. Hozirgi Suriya, Livan, Iordaniya hududlarini o'z ichiga olgan Bilad ash-Sham mintaqasida shahar va qishloq aholisi, qabila jamoalari va konfessional guruhlar o'rtasidagi farq mahalliy va jamoaviy identiklikni mustahkamlashga xizmat qilgan. Biroq Arabiston yarim orolida esa hukmron qabilaviy tuzum markazlashgan davlatchilik shakllanishni cheklagan. Ayrim tadqiqotchilar imperiya umumislomiy sivilizatsion o'zlik uchun muayyan institutsional poydevor yaratganini ta'kidlaydilar. E.Said, F.Fanon, F.Xallidey [10; p. 304] zikr etgan "ummat" tushunchasi diniy-axloqiy hamjihatlikni o'zida ifodalagan bo'lsa-da, milliy-hududiy siyosiy birlik va fuqarolik g'oyasini shakllantirish institutsional salohiyatiga ega emas edi. Shu sababli XX asr boshlarida milliy davlatchilik loyihalari kun tartibiga kelganda, ularni legitimlashtiruvchi tarixiy-institutsional poydevor deyarli mavjud bo'lmagan.

Muhokama va natijalar. XX asr boshlari kolonial rejalashtirish jarayoni mintaqaning etnik, qabilaviy va konfessional tuzilmasini inobatga olmagan holda yangi siyosiy chegaralarni belgilab bergan. 1916-yildagi Sayks-Piko maxfiy kelishuvi va undan keyingi Fransiya mandat hududlari (Livan va Suriya) va Buyuk Britaniya protektoratlari (Iroq, Transiordaniya, Falastin) natijasida shakllangan siyosiy chegaralar ko'proq metropoliyalarning geosiyosiy manfaatlarini aks ettirib, ichki demografik va madaniy realliklar bilan uzviy bog'lanish kasb etmadi. Livanda 1943-yili qabul qilingan "Milliy kelishuv" konfessional prinsipga asoslangan holda davlat lavozimlarini diniy jamoalar o'rtasida taqsimlashni institutsionallashtirdi. Prezidentlik maronit xristianlarga, bosh vazirlik sunniylarga, parlament spikerligi shia vakillarga berildi. Ushbu tizim konfessional identikliklarni siyosiy identikliklarga transformatsiya qilib, fuqarolik prinsipiga asoslangan milliy o'zlikni shakllantirishni murakkablashtirdi.

Iroq misolida Britaniya mandati doirasida 1920-yillarda yaratilgan davlat Usmoniylar imperiyasiga kirgan viloyatlarni (Basra, Bag'dod, Mosul) birlashtirish asosida qurilgan edi. Ya'ni shimolda kurdlar, markazda sunniy arablar, janubda shialar yashaydigan hududlar geostrategik manfaatlar asosida yagona siyosiy identiklikka birlashtirildi. Ushbu geterogen tuzilma uzoq muddat institutsional beqarorlik va identifikatsion ziddiyatlarning asosiy manbaiga aylandi. Suriya va Livan hududlari Fransiya mandati ostida bo'linishi "Katta Suriya" g'oyasi hamda mintaqaviy arab identikligining inqiroziga va millat-davlat loyihalari alohida rivojlanishiga olib keldi. B.Anderson [1; c. 229] o'zining "Tasavvurdagi jamoalar" asarida kolonial chegaralarning milliy

identikliklarni shakllanishidagi ziddiyatli rolini tahlil qilgan. Yaqin Sharqda siyosiy va madaniy hududlar xaritalari o'rtasidagi struktur nomuvofiqlik keskin namoyon bo'ldi.

Kolonial hukmronlik ba'zan zamonaviy ma'muriy, byurokratik va huquqiy institutlarni olib kelgani ta'kidlanadi. Biroq R.Xinnebush va I.D.Zvyagelskaya tomonidan qilingan tadqiqotlar mazkur institutlarning mahalliy ijtimoiy tuzilmalarga moslashmagan, "mexanik ko'chirilgan" mexanizmlar sifatida faoliyat yuritganini ko'rsatadi [2, 11]. Ular milliy fuqarolik identikligini shakllantirishdan ko'ra, qabilaviy va konfessional strukturalar saqlanib qolishiga, ayrim hollarda esa yanada institutsionallashtirishga xizmat qildi. Davlatchilik ko'p hollarda milliy hamjihatlik mahsuli emas, balki tashqi siyosiy muhandislik natijasi bo'lgani uchun, identiklik davlatdan oldin emas, balki davlat orqali konstruksiya qilina boshlagan.

Charlz Tilli Yevropa davlatlari tarixini tahlil qilgan ekan, "davlat urushni yaratadi, urush davlatni yaratadi" formulasini ilgari surib, davlatchilik rivojini zo'ravonlikni markazlashtirish va harbiy mobilizatsiya bilan bog'laydi [18; p. 74]. Yaqin Sharq arab davlatlari misolida ushbu mantiqni funksional analogiyada "davlat identiklikni yaratadi, identiklik davlatni qayta ishlab chiqadi" shaklida qo'llash mumkin [11; p. 157]. Chunki kolonial va postkolonial sharoitda mintaqadagi siyosiy tuzilmalar ichki milliy birdamlikning emas, balki tashqi siyosiy muhandislik va geosiyosiy hisob-kitoblarning mahsuli sifatida vujudga kelgan. Shundan so'ng aynan shu "tayyor" davlat chegaralari va institutlari milliy tarix, rasmiy narrativlar, ramzlar va fuqarolik loyalligini konstruksiyalash platformasiga aylangan. Ch.Tilli qayd etganidek, Yevropada urush davlatni markazlashtirgan bo'lsa, Yaqin Sharqda davlatchilik milliy identiklikni yuqoridan pastga shakllantiruvchi mexanizm bo'lgan [18; p. 135]. Keyinchalik konstruksiya qilingan milliy identiklik davlat legitimligi va suverenitetini mustahkamlash uchun ramziy va siyosiy resurs sifatida qayta davlatga xizmat qila boshlagan.

Milliy identiklikning siyosiy mazmuni, birinchi navbatda, hukmron elitalar tomonidan amalga oshirilgan davlat qurilishi strategiyalari orqali shakllandi. Yaqin Sharq arab davlatlarida XX asr o'rtalarida milliy o'zlikni siyosiy-konstruktiv ravishda yaratishning asosiy uch modeli namoyon bo'lgan: sekulyar milliylik, panarabizm va islomiy legitimatsiya.

Misrda Muhammad Ali sulolasi davridan (1805-1953-yillar) "misrchilik" yoki "egiptizm" deb yuritilgan konsepsiya shakllana boshlagan bo'lib, u qadimgi fir'avnlarning davlati merosini zamonaviy milliy identiklikning ramziy poydevori sifatida talqin qilishga qaratilgan edi. Misrda Jamol Abdunnosirning prezidentlik davrida Misr milliy identikligi avvalo "egiptizm", keyin esa panarabizm ideallari asosida qayta ifodalangan. 1956-yilda Suvaysh kanalining milliy lashtirilishi, 1958-1961-yillarda Misr va Suriya o'rtasida "Arab Birlashgan Respublikasi" tashkil etilishi va Isroilga qarshi harbiy-siyosiy kurash panarab identikligining asosiy ramzlariga aylandi. Biroq 1967-yilgi Arab-Isroil urushidagi mag'lubiyat panarabizmning g'oyaviy va siyosiy jozibasini

keskin zaiflashtirib, milliy-davlat asosidagi identiklik modelining yana ustuvor ahamiyat kasb etishga ta'sir qildi.

Suriya va Iroqda yetakchilik qilgan "Baas" partiyasi Mishel Aflaq g'oyalaridan kelib chiqib, milliy identiklikni "birlik, erkinlik, sotsializm" shiori asosida yuqoridan pastga yo'naltirilgan mafkuraviy mobilizatsiya orqali shakllantirishga intildi. Ammo mazkur davlatlardagi joriy etnik va konfessional voqeliklar mamlakat rahbariyati tomonidan e'tibordan chetda qoldirilgani bois davlat barqarorligi ko'p hollarda repressiv mexanizmlar orqali ta'minlangan. Suriyada prezident Hofiz Asad (1970-2000-yillar) konfessional ozchilik bo'lmish alaviylarga va Iroqda prezident Saddam Husayn (1979-2003-yillar) kam sonli sunniylar guruhlariga tayangan holda davlatni boshqargan. Bunda shia mazhabi vakillari va etnik kurdlar siyosiy jarayonlarda to'liq sub'ekt sifatida namoyon bo'lish imkoniyatidan mahrum etilgan. Bu holat milliy identiklik loyihalarining inklyuzivlik darajasini cheklab, etnokonfessional bo'linishlarni yanada chuqurlashtirgan.

Iordaniyada monarxiya o'z legitimligini sulola tarixi, nasab (payg'ambar avlodiga bog'liqlik), qabilaviy elitalar bilan kelishuvlar hamda diniy ramzlarga tayangan holda qurgan. Buning natijasida Iordaniyada milliy identiklik sulolaviy-muqaddas ramz va zamonaviy davlat institutlari uyg'unlashuvi asosida gibril shaklda ifodalangan. Hoshimiylar sulolasi misolida qabilaviy elitalar bilan "patron-klient" munosabatlari va nisbatan pragmatik tashqi siyosat Iordaniyani mintaqaning barqaror monarxiyalaridan biriga aylantirgan [19].

Siyosiy elita milliy-madaniy loyihalarni ilgari surish orqali an'anaviy ijtimoiy tuzilmalarni transformatsiya qilishga intildi, biroq ko'p hollarda qabilaviy va konfessional identikliklar milliy o'zlikka nisbatan ustuvorlik qilgan. Zero, Yaqin Sharq jamiyatlari "Etnokonfessional bo'lingan jamiyatlar" deb tavsiflanadi. Bunda etnik va konfessional guruhlariga bo'lgan loyallik milliy bog'liqliklardan ustunlik qiladi, chunki amerikalik siyosatshunos olim A.Leyphart tomonidan ilgari surilgan konsotsiativ demokratiya nazariyasiga ko'ra, mazkur jamiyatlarda barqarorlik elita o'rtasidagi kvota, koalisiya va "katta kelishuvlar" orqali ta'minlangan [12]. Livanda konfessional konsensus tizimi aynan shunday modelning klassik, ammo muammoli namunasiga aylangan. Suriya va Iroqda esa institutsional mexanizmlar emas, balki kuch va xavfsizlik apparatlari orqali jamiyatni avtoritar barqarorlashtirish amalga oshirilgan.

Yaqin Sharq mintaqasida qabilaviy, konfessional va etnik tuzilmalar arab milliy identikligini shakllantirishda doimiy ravishda raqobatdosh o'zliklar markazlari sifatida namoyon bo'lgan. Iordaniyada qabilaviy loyallik tarixan davlatga sadoqatdan kuchliroq ijtimoiy bog'lanish shakli sifatida saqlanib kelgan. Iordaniyada Hoshimiylar sulolasi Arabiston yarimorolidan ko'chib kelib, mahalliy qabilalar bilan ittifoqlar tuzish asosida ushbu mintaqada o'z legitimligini mustahkamlagan va mazkur ittifoqlar davlat barqarorligining institutsional poydevoriga aylangan. Shu jumladan, Livanda konfessional mansublik fuqarolik identikligiga qaraganda ustuvorlikka ega

bo'lib, siyosiy tizim sunniy, shia, maronit, druz va boshqa jamoalar o'rtasidagi kvotalar va kelishuvlar asosida qurilgan. Etnik xilma-xillikni potensial resurs sifatida talqin qilish mumkin, biroq u faqat inklyuziv fuqarolik konsepsiyasi va plyuralistik davlat modeli mavjud sharoitda samara beradi [20]. Zero, aks holda xilma-xillik milliy loyihalarning parchalanishiga va raqobatdosh identikliklar shakllanishiga turtki beradi.

Postkolonial voqelik va globallashuv jarayonlari Yaqin Sharq arab davlatlarida milliy identiklik rivojlanishini XX asr ikkinchi yarmidan yangi bosqichga ko'tardi. 1967-yildagi Arab-Isroil urushidagi mag'lubiyat arab dunyosida panarabizm g'oyasining siyosiy jozibadorligini zaiflashtirib, milliy-davlat identiklik modellarining qayta kuchayishiga olib keldi [1; p. 194]. 1970-1990-yillari arab davlatlarida qayd etilgan diniy ekstremistik kayfiyatlarning kuchayish to'liqini modernistik dunyoviy loyihalar ta'siri cheklanganligini ko'rsatib, jamiyatda identiklikning diniy formatiga bo'lgan talabni oshirdi va milliy o'zlikning islom diniga xos ramzlar bilan uyg'unlashgan muqobil modellarini shakllantirgan. Kolonial va postkolonial davlatlardagi legitimlik inqirozi hamda arab davlatlarining tashqi homiylarga AQSh, Buyuk Britaniya, Fransiya, Rossiya (SSSR) bog'liqligi milliy suverenitet narrativini zaiflashtirdi va milliy identiklik tashqi kuchlar bilan munosabatlar nigohida talqin qilinishiga olib keldi.

Arab davlatlaridagi neft zaxiralari mintaqani jahon geostrategik raqobatining ustuvor nuqtasiga aylantirdi. Sobiq Sovet Ittifoqi parchalanganidan keyin AQSh Yaqin Sharqda asosiy tashqi ta'sir kuchiga aylanib, mintaqaning siyosiy arxitekturasiga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi aktor sifatidagi o'rnini yanada mustahkamladi. 1991-yildagi "Sahrodagi bo'ron" harbiy amaliyoti va 2003-yildagi Iroqqa bostirib kirish natijasida prezident Saddam Husayn hokimiyatdan chetlashtirildi, ammo bu jarayon davlat institutlarining yemirilishi, hokimiyat vakumining yuzaga kelishi va jamiyatdagi etnokonfessional tartibsizlikning chuqurlashishiga olib keldi. Buning oqibatida Iroqdagi hokimiyat inqirozi "Islom davlati" kabi radikal ekstremistik tuzilmalarning paydo bo'lishiga asos yaratdi. Bu holat postmustamlakachilik davridan meros qolgan ichki ziddiyatlar nafaqat milliy, balki mintaqaviy va global xavfsizlikka tahdid omiliga aylanishi mumkinligini ko'rsatdi.

XX asr oxiri va XXI asr boshlari arab davlatlaridagi identiklik siyosatining mazmuni sezilarli darajada o'zgargani kuzatildi. Mediatizatsiya, transmilliy kommunikatsiya vositalari, diasporalar faolligining ortishi va gibrid identiklik modellarining shakllanishi arab jamiyatlarining o'zini anglash jarayonlariga yangi xususiyatlar kiritdi. Sun'iy yo'ldosh orqali efirga uzatiladigan telekanallar, ayniqsa, 1996-yilda ish boshlagan Qatarning "Al-Jazira" axborot kanali arab ommaviy kommunikatsiya maydonini qayta shakllantirib, umumarab siyosiy debatlar uchun yagona platformani yaratdi. Mark Lynch ta'kidlashicha, mazkur kanallar arab dunyosida "arab axborot makoni"ni vujudga keltirib, umumarab media diskursi uchun yagona muloqot maydonini

yaratdi [13; p. 112]. Internet va ijtimoiy tarmoqlar ommalashuvi arab davlatlaridagi siyosiy jarayonlarga yangi dinamika kiritdi. 2010-2012-yillar “arab bahori” davrida raqamli platformalar yoshlar uchun an’anaviy nazorat institutlaridan tashqaridagi alternativ maydonni yaratib, siyosiy va jamoaviy mobilizatsiyaning asosiy vositasiga aylandi. Shu tariqa raqamli jamiyat arab davlatlarida vujudga kelayotgan yangi identifikatsiya amaliyotlarining muhim manbai sifatida shakllandi.

Yaqin Sharq arab davlatlarida milliy identiklik hanuzgacha to‘liq shakllanmagan va barqaror emas. U tarixiy tajriba, elitar strategiyalar, tashqi kuchlar aralashuvi va global jarayonlar ta’sirida doimiy qayta ko‘rib chiqiladigan, ochiq, raqobatga kirisha oladigan va ko‘p qirrali tizim sifatida namoyon bo‘ladi. XX asr oxiridan arab diasporalarining roli sezilarli darajada ortgani qayd etiladi. Yevropa va Shimoliy Amerikadagi arab migrantlari nafaqat pul o‘tkazmalari orqali o‘z vatani iqtisodiyotiga ta’sir ko‘rsatmoqda, balki turli jamoat birlashmalari, nodavlat tashkilotlar va transmilliy tarmoqlar orqali madaniy aloqalarni saqlab qolmoqda, siyosiy lobbi faoliyatini kuchaytirmoqda. Bu o‘z navbatida, arab davlatlari uchun “diaspora diplomatiyasi”ni amalga oshirishga qulay imkoniyat yaratmoqda. Shu bilan birga, diaspora muhitida shakllanadigan “qo‘sh sodiqlik” fenomeni qabul qiluvchi yangi jamiyat va o‘z vatani o‘rtasidagi madaniy-ramziy bog‘liqliklarni mustahkamlab, gibrid identikliklarni yaratmoqda.

Mazkur gibrid identikliklarni sharhlashga Homi Bhabha ilgari surgan “Uchinchi makon” konsepsiyasi muhim nazariy asos hisoblanadi [3; c. 204]. Unga ko‘ra, identiklik bevosita madaniy tafovutlar qarama-qarshiligidan emas, balki ikki yoki bir nechta madaniy makon kesishgan oraliq hududda vujudga keladi. Hozirda arab yoshlari global pop-madaniyat, raqamli kommunikatsiya muhiti va mahalliy diniy qadriyatlarni uyg‘unlashtirib, zamonaviy arab identikligining transmilliy shakllarini yaratmoqda.

Giperglobalizm yondashuvi, neoliberal globallashuv nazariyasi va madaniy gomogenizatsiya modeli kabi nazariy paradigmalardan kelib chiqib, globallashuv jarayoni ayrim tadqiqotchilar tomonidan milliy davlat suverenitetini hamda milliy identiklikni zaiflashtiruvchi omil sifatida talqin etiladi [6; p. 94]. Mazkur paradigmalarga ko‘ra, jahon iqtisodiy integratsiyasi, ommaviy madaniyatning transmilliy hukmronligi va axborot-kommunikatsiya tarmoqlarining kuchli ta’siri mahalliy va milliy o‘zliklar barqarorligini izdan chiqaradi. Xususan, Kenichi Omae ta’kidlaganidek, globallashgan iqtisodiy makonda davlatning iqtisodiy-me’yoriy funksiyalari qisman bozordagi yetakchi kuchlar tomonidan o‘zlashtiriladi [14; p. 174]. Bu holat arab davlatlarida milliy identiklikning suveren davlat emas, balki global iqtisodiy tuzulmalar ta’sirida shakllanishiga olib kelmoqda.

Arab davlatlari ko‘p hollarda mazkur nazariy modellar to‘liq amal qilmasligini namoyon etgan. Tashqi madaniy va siyosiy ta’sirlar kuchaygani sari jamiyatlar o‘zining milliy va

sivilizatsion o'zagini himoya qilish va saqlab qolishga, uni joriy shart-sharoitlardan kelib chiqib, rivojlantirishga va ichki birlikni mustahkamlashga intilish kuchayib bormoqda. Shu ma'noda Yaqin Sharq arab davlatlarida milliy identiklik imperiya davridan meros bo'lib qolgan tuzilmalar, sun'iy kolonial chegaralar, elitalar amalga oshirgan davlat qurilishi loyihalari, qabilaviy va konfessional ierarxiyalar saqlanib qolishi, shuningdek, postmustamlakachilik va globallashuv ta'sirida shakllanayotgan ko'p qatlamli, dinamik va kesishuvchan fenomen sifatida namoyon bo'lgan.

Davlat milliy identiklikni barpo etuvchi va konstruktillashtiruvchi asosiy siyosiy institut bo'lib qolmoqda. Biroq qabilaviy, konfessional va etnik identikliklar ushbu ijtimoiy-siyosiy konstrukt uchun doimiy raqobat maydonini yaratadi. Global va transmilliy ta'sirlar arab identikligining yanada gibril, mozaik va ko'p o'lchamli shaklda namoyon bo'lishiga olib kelmoqda.

Shu jihatdan, Yaqin Sharq arab davlatlarida milliy identiklikning shakllanishi rasmiy davlatchilik diskursi va jamoaviy-ijtimoiy o'zlik amaliyotlari ta'sirida kechganini ko'rish mumkin. Panarabizm, islom renessansi, dunyoviy davlatchilik kabi mafkuralar davlat tomonidan yaratilib, ta'lim dasturlari, ommaviy axborot vositalari va madaniy siyosat orqali institutsionallashtirilgan bo'lsa, qabilaviy va konfessional mansublik kabi mahalliy o'zlik shakllari yuqoridan joriy etilgan identiklik modellarini to'liq qabul qilmagan. Aksincha, ular ko'p hollarda rasmiy loyihalar bilan raqobatga kirishib, milliylik g'oyasining ichki xususiyatiga ta'sir ko'rsatgan.

Shuningdek, Yaqin Sharq arab davlatlarida milliy identiklikni shakllantirishda siyosiy iqtisod va resurslar taqsimoti alohida o'rin tutgan. Masalan, Arabiston yarimoroli mamlakatlarida davlat-fuqaro munosabatlari rental xarakterga ega bo'lib, milliy identiklik iqtisodiy farovonlik va oliy hokimiyatga sadoqat ramzida namoyon bo'lgan [19; c. 38]. Bu milliy o'zlikning siyosiy mazmunini iqtisodiy manfaatlar bilan bog'lab, davlatga bog'liqlikni kuchaytiruvchi omilga aylantirgan.

Suriya, Iroq, Livan kabi davlatlarda milliy identiklik shakllanishi zo'ravonlik, raqobatdosh elita guruhlar va ichki fraksionlik ta'sirida amalga oshgan. Mazkur davlatlarda davlatchilik loyihasi jamoaviy manfaatni emas, balki muayyan konfessional yoki etnik guruh ustunligini ifodalagan uchun milliy o'zlik umumfuqarolik identikligidan ko'ra tarqoq guruh identikliklari majmuasiga aylangan. Milliy identiklik siyosiy jarayonlar bilan birga ifodalanadigan, beqaror va raqobatdosh kategoriya sifatida mavjud bo'lib kelmoqda.

Yaqin Sharqda milliy identiklik shakllanishida intellektual muhit muhim ahamiyatga molik bo'lgan. XX asr ikkinchi yarmidan arab dunyosidagi intellektual muhit milliylik, arab modernizmi va postkolonial tanqid atrofida bahslarni qamrab olgan. Bu jarayon milliy identiklikning mohiyati haqidagi akademik va siyosiy fikrlarni diversifikatsiya qilib, davlat mafkurasining

monopoliyasini nisbatan chekladi va milliy o'zlikning ko'p qirrali, ko'p manbali xususiyatini namoyon qildi [16]. Hozirda arab intellektual muhitida milliy identiklik dinamik, jamiyatdagi kuchlar balansini, global ta'sirlarni va elita strategiyalarini aks ettiruvchi fenomen sifatida baholanmoqda.

Arab davlatlarida milliy identiklikning institutsional poydevori xavfsizlik, harbiy-siyosiy apparat va tashqi siyosiy tahdidlar bilan uzviy bog'liq bo'lib qolmoqda. Isroil bilan munosabatlar, Eronning mintaqaviy ta'siri, terrorizmga qarshi kurash va geosiyosiy raqobat davlat tomonidan milliy birlikni mustahkamlash vositasi sifatida qo'llanib kelingan. Arab davlatchiligida "xavfsizlik ustuvorligi" fenomeni milliy identiklikning mobilizatsion va konsolidatsion vazifalarini kuchaytirib, fuqarolik o'zligini tashqi tahdidlarga xizmat qiluvchi ramziy kategoriyaga aylantirgan, ichki ijtimoiy nizolarni bartaraf eta olmasada, ularning rivojlanishini kechiktiruvchi omil bo'lgan.

Shu bois Yaqin Sharq arab davlatlarida milliy identiklik tarixiy meros, etnokonfessional amaliyotlar, elita siyosati, iqtisodiy modellar va global ta'sirlar kesishmasida shakllanayotgan, dinamik, ko'p qatlamli va o'zgaruvchan fenomen sifatida talqin etilmoqda. Uning barqarorligi yoki inqirozi muayyan davlatning institutsional salohiyatiga, jamiyat manfaatlarini inklyuziv tarzda ifodalash imkoniyatiga va tashqi siyosiy muhitning bosimiga bevosita bog'liq bo'lib qolmoqda. Shundan kelib chiqib, Yaqin Sharq arab davlatlari milliy identikligi masalasini to'rt yo'nalishda tahlil qilish mumkin: 1) davlatchilikning tarixiy-institutsional evolyutsiyasi; 2) etnokonfessional va qabilaviy tuzilmalar barqarorligi; 3) mustamlakachilik merosi va tashqi geosiyosiy ta'sirlar; 4) globallashuv, media va diasporalar bilan bog'liq yangi transmilliy omillar. Milliy identiklik mazkur yo'nalishlar kesishuvida doimiy qayta yaratiladigan siyosiy va ramziy konstrukt sifatida talqin qilish hozirgi konstruktivistik yondashuvlarga muvofiq keladi [5; c. 305].

Shu nuqtai nazardan, mazkur davlatlardagi milliy identiklikni faqat zamonaviy millat-davlat konsepsiyasi doirasida izohlash yetarli emas. Ernest Gellner va Entoni Smit kabi olimlar ta'kidlaganidek, milliylik ko'p hollarda "ziyolilar loyihasi" hamda "tarixiy xotirani institutsional boshqarish" amaliyoti bilan uyg'un holda shakllanadi [4]. Ushbu loyihalar mintaqadagi mustamlakachilikdan keyingi davlatchilik muhitida, zaif institutlar va kuchli jamoaviy-konfessional loyallik sharoitida amalga oshirilgan. Bunda milliy tarix hududiy suverenitetni legitimlashtirish maqsadida institutsionallashtirilgan [17; p. 183].

Shu bilan birga, postkolonial va globallashuv sharoitida arab milliy identikligi siyosiy isteblishment tomonidan yaratilgan davlat narrativlari bilan cheklanib qolmagan. Arab ziyolilari va diaspora muhitida shakllanayotgan demokratik fuqarolik, inson huquqlari, mintaqaviy birdamlik, shuningdek radikal diniy yoki sektantlik ritorikasi kabi muqobil diskurslar mavjud davlat modellariga nisbatan o'zgacha identifikatsiya ssenariylarini ilgari surmoqda. "Arab bahori"

voqea-hodisalari davrida “shahar fuqarosi” obrazining an’anaviy qabilaviy va konfessional loyallikka nisbatan mustaqil siyosiy sub’ekt sifatida ilgari surilishi ham mazkur tendensiyaning muhim ko‘rinishlaridan biri bo‘lgan. Shu bois Yaqin Sharq arab davlatlarida milliy identiklik, bir tomondan, tarixiy meros va davlatchilik an’analariga suyangan holda, ikkinchi tomondan esa ichki ijtimoiy tuzilmalar va global omillar ta’siri ostida doimiy qayta shakllanmoqda. Bundan kelib chiqib, mazkur identiklikni statik holat emas, balki uzluksiz davom etayotgan siyosiy-institutsional barpo etish va jamoaviy o‘zini anglash jarayoni sifatida konseptuallashtirish maqsadga muvofiqdir.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, quyidagicha xulosa qilish mumkin:

1. Yaqin Sharq arab davlatlarida milliy identiklik davlat, siyosiy va diniy elita manfaatlarini, konfessional va qabilaviy tuzilmalar, shuningdek, tashqi aktorlar ta’sirida shakllanishi haqidagi nazariy xulosalar Misr, Suriya, Livan, Falastin va Iroq misolida tasdiqlanadi. Ushbu mamlakatlar tajribasi arab dunyosida milliy identiklik yagona traektoriya bo‘yicha rivojlanmaganini, balki turli tarixiy, institutsional va ijtimoiy kontekstlarda shakllangan murakkab siyosiy fenomen ekanligini ko‘rsatadi.

2. Yaqin Sharq arab davlatlarida milliy identiklik davlat, siyosiy va diniy elitalar, konfessional tuzilmalar hamda mintaqaviy va xalqaro aktorlar ta’sirida yaratilgan siyosiy konstruktdir. Bunda kolonial va postkolonial jarayonlar arab milliy identikligi shakllanishida muhim institutsional omil bo‘lgan. Mintaqada “davlat-identiklik” mantig‘i ustuvor bo‘lib, davlat milliy o‘zlikni yaratishda asosiy aktor vazifasini bajargan. Globallashuv va diasporalar transmilliy identiklikning yangi shakllarini yuzaga keltirgan. Yaqin Sharq arab davlatlarida milliylik barqaror emas, balki siyosiy inqiroz sharoitida qayta ko‘rib chiqiladigan dinamik tizim sifatida namoyon bo‘ladi.

3. Kolonial va postkolonial davrda kiritilgan ma’muriy, byurokratik va huquqiy institutlar mahalliy tuzilmalarga tatbiq etilib, qabilaviy va konfessional tuzilmalar mustahkamlangan. Bunday sharoitda Ch.Tilli formulasi funksional jihatdan “davlat identiklikni yaratadi, identiklik davlatni qayta ishlab chiqadi” ko‘rinishida namoyon bo‘lib, milliy o‘zlik davlat tomonidan shakllantirilgan. XX asr o‘rtalarida arab davlatlarida milliy identiklikni siyosiy-konstruktiv yaratishning sekulyar milliylik, panarabizm, islomiy legitimatsiya va sulolaviy-monarxik kabi modellari parallel shakllangan. Ular harbiy-siyosiy va diniy elitalar manfaatlarini va ichki etnokonfessional tuzilmalar bilan kesishgan nuqtada amalga oshirilgan. Ushbu modellar inklyuziv fuqarolik konsepsiyasiga emas, muayyan guruh ustunligiga tayangani milliy identiklikni esa raqobat va nizo maydoniga aylantirgan.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Андерсон Б. Воображаемые сообщества: размышления об истоках и распространении национализма / Пер. с англ. В.Николаева. – М.: Кучково поле, 2016. – 416 с.
2. Ближний Восток: политика и идентичность / под ред. И.Д.Звягельской. – М.: Аспект Пресс, 2020. – 336 с.
3. Бхабха Х.К. Место культуры / пер. с англ. – М.: Новое литературное обозрение, 2013. – 285 с.
4. Геллнер Э. Нации и национализм / пер. с англ. Т.Бердиковой, М.Тюнькиной. – М.: Прогресс, 1991. – 320 с.
5. Саид Э. Ориентализм / пер. с англ. – СПб.: Русский мир, 2005. – 368 с.
6. Albrow M. The Global Age: State and Society Beyond Modernity. – Stanford: Stanford University Press, 1996. – 248 p.
7. Barber B.R. Jihad vs. McWorld: How Globalism and Tribalism Are Reshaping the World. – New York: Times Books, 1995. – 384 p.
8. Dawisha A. Arab Nationalism in the Twentieth Century: From Triumph to Despair. – Princeton: Princeton University Press, 2003. – 340 p.
9. Fanon F. The Wretched of the Earth / Transl. by C.Farrington. – New York: Grove Press, 1963. – 320 p.
10. Halliday F. The Middle East in International Relations: Power, Politics and Ideology. – Cambridge: Cambridge University Press, 2005. – 374 p.
11. Hinnebusch R. The International Politics of the Middle East. – Manchester: Manchester University Press, 2nd ed. 2015. – 368 p.
12. Lijphart A. Democracy in Plural Societies: A Comparative Exploration. – New Haven: Yale University Press, 1977. – 248 p.
13. Lynch M. The New Arab Wars: Uprisings and Anarchy in the Middle East. – New York: Public Affairs, 2016. – 284 p.
14. Ohmae K. The End of the Nation State: The Rise of Regional Economies. – New York: Free Press, 1995. – 214 p.
15. Ritzer G. The McDonaldisation of Society. – Thousand Oaks: Pine Forge Press, 1993. – 224 p.
16. Smith A.D. National Identity. Reno: University of Nevada Press, 1991. – p. 92.
17. Strange S. The Retreat of the State: The Diffusion of Power in the World Economy. – Cambridge: Cambridge University Press, 1996. – 223 p.

18. Tilly C. Coercion, Capital, and European States, AD 990–1992. – Oxford: Blackwell, 1992. -261 p.

19. ساطع الحصري. آراء وأحاديث في القومية العربية. بيروت: دار العلم للملايين، 1956م. ص 56.

20. عزمي بشارة. في المسألة العربية: مقدمة لبيان ديمقراطي عربي. بيروت: مركز دراسات الوحدة العربية، 2007. – ص 476.